

## MEHMONLAR UCHUN SHART:

- Tashrif davomida niqob taqish.
- COVID-19 tekshiruvini hamda ism va familiya tushirilgan bejjik olish uchun Ro'yxatxonada ro'yxatdan o'tish. Mehmonlardan ID hujjat rasmini ko'rsatish so'raladi.
- Salomatlik holati – isitma, yo'tal yoki shamollash, yoki oshqozon virusi alomatlaridan holi bo'lish hamda sog'lom odamlar bilan birga yashash. Agar mehmonlarning uyida biror kishi kasal bo'lsa, ular kutilmaganda mikrob tarqatishi mumkin.
- Qo'llaringizni tez-tez, ayniqsa, bemorning oldiga tashrifdan oldin va keyin yuving.

## COVID-19 laboratoriya testiga oid maxsus eslatma

Testdan barcha tasdiqlangan mehmonlar foydalanishi mumkin hamda kasallik alomatlariga ega yoki COVID-19 bo'yicha test natijasi ijobiy bo'lgan biror kishi bilan yaqin aloqada bo'lganlar uchun ustuvorlik beriladi. Har qanday ehtimoliy yuqumli kasallik alomatlari mavjud tasdiqlangan mehmonlar bemorlarning oldiga kirishiga ruxsat berilmaydi. COVID-19 bo'yicha test natijasi ijobiy bo'lgan har kim kamida 5 kun davomida uyda izolyatsiyalanishi talab qilinadi va shu vaqt davomida tashrif buyurishi mumkin emas.

## Statsionar tashriflar

**Tashrif vaqti:** 8:30 – 20:30

**Farzandingiz shu yerdaligida uning oldiga tashrif buyurishi mumkin bo'lgan kishilar ro'yxatini tuzishingiz so'raladi. Faqat ro'yxatdagi kishilar tashrif buyurishi mumkin.**

### Kimlar tashrif buyura oladi?

- 24/7 tashrif imkoniyatiga ega ikki nafar asosiy hamroh (odatda ota-ona).
- Voyaga yetgan bemorning uyida ayni paytda yashovchi (jumladan, biologik, asrandi va o'g'ay) tug'ishganlari yoki farzandlari. Ular bemorni tashrif vaqti davomida ko'rish mumkin.
- To'rttagacha tashrif buyuruvchini kiriting. Ular tashrif vaqtida bemorni ko'rish mumkin. Voyaga yetmaganlarga har doim katta yoshli shaxs hamrohlik qilishi kerak.

Qo'shimcha oila a'zolari va do'stlari o'z yordamini virtual tarzda ulashishi mumkin. Bir vaqtda to'rttagacha odam bemorning xonasida bo'lishi mumkin va ushbu to'rtta tashrifchining biri katta yoshli bo'lishi kerak.

Oilaviy ahvolingiz o'zgararsa yoki sizda farzandingizdan yordam olish va berishda muammolar bo'lsa, yordam uchun ijtimoiy masalalar xizmatiga murojaat qiling. Maishiy/vasiylik masalalar yuzaga kelganda ijtimoiy xizmat xodimlari adolatli tashrifni ta'minlash uchun oila a'zolari bilan ishlashi mumkin.

24/7 asosiy hamrohlar uchun yotoq sharoitlari bloklarga qarab farqlanishi mumkin. Xonalar kamida bir kishi uchun yigirma krovat bilan jihozlangan. Poldalarni uxlash uchun hech kimga ruxsat berilmaydi, bu siz, sevimli insoningiz va xodimlarimiz xavfsizligi uchun xatar tug'diradi. Shifoxonadan tashqarida yotoq sharoitlari yaratishda yordam uchun 513-636-5009 raqami yoki 888-894-1374 bepul raqami orqali Konsyerj xizmatiga murojaat qiling.

## Ambulator tashriflar

*(Shoshilinch (Emergency), Tez tibbiy (Urgent Care), Klinik (Clinic), Kunduzgi jarrohlik (Day Surgery), Test olish uchun tashriflar (Testing Visits))*

**Farzandingizga ikkitagacha odam hamrohlik qilishi mumkin. Bunga ota-onalar, vasiylar, turmush o'rtoq va oilaviy sherik kiradi. 18 yoshdan kichik tashrifchilar tavsiya etilmaydi.**

Cincinnati Children's shifoxonasi amaldagi qonunlarga muvofiq faoliyat yuritadi hamda kishilarga nisbatan diskriminatsiyaga yoki ularga nisbatan irqi, terisining rangi, milliy mansubligi, ajdodlari, e'tiqodi, yoshi, jinsi, jinsiy mansubligi, oilaviy holati, imkoniyati cheklanganligi yoki boshqa noqonuniy sabablarga ko'ra munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaydi.

ATENCIÓN: si habla español, tiene a su disposición servicios gratuitos de asistencia lingüística (interpretación y traducción). Llame al 1-513-517-4652.

注意：如果您使用中文，您可以免費獲得語言援助服務。請致電 1-513-517-0662。

# Sizning huquq va majburiyatlaringiz

## Bemorlar va ota-ona/oila a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- Tanlovingizga ko'ra oila a'zosi yoki vakil bilan uchrashish hamda shifoxonaga qabul qilinganlik haqida shifokoringizni zudlik bilan xabardor qilish;
- Irqi, terisining rangi, diniy e'tiqodi, ajdodlari, milliy mansubligi, fuqaroligi, e'tiqodi, yoshi, irsiy ma'lumotlari, jismoniy yoki aqliy imkoniyati cheklanganlik, oilaviy holati, jinsi, homiladorlik, jinsiy mansubligi, gender mansubligi, harbiy, veteranlik yoki imkoniyati cheklangan veteranlik holati yoki amaldagi federal, shtat yoki mahalliy qonunlar va qoidalar bilan himoya qilinadigan boshqa holatlardan qat'i nazar e'tibor va hurmat bilan davolanish;
- Cincinnati Children's shifoxonasi shifokorlari va hamshiralarning ismini va ularning vazifasini bilish;
- Shifokorga o'zingizga tushunarli sozlar bilan kasallik, muolaja va tuzalish istiqbollari haqida aytish;
- Har qanday taklif qilingan muolajaga rozilik berish yoki rad qilish uchun o'zingizga kerakli ma'lumotlarni olish;
- Tibbiy yordam bo'yicha qarorlar qabul qilishda, jumladan, zarur hollarda og'riqni qoldirishni ham o'z ichiga oluvchi tibbiy yordam rejasini ishlab chiqish va tatbiq qilishda faol ishtirok etish;
- Tibbiy yordamga aloqador, jumladan, qonun tomonidan ruxsat berilishiga qarab tibbiy yordamni rad etishga doir asosli qaror qabul qilish;
- Tibbiy yordam va muolajalarda maxfiylik; bu tibbiy yordamga bevosita jalb qilinmagan shaxslar muolajalar yoki muhokamalar paytida nima uchun hozirligi haqida ma'lumot olish huquqini hamda umuman, shaxsiy maxfiylikni o'z ichiga oladi.
- Xavfsiz sharoitda, qo'pol munosabat, zo'ravonlik yoki jismoniy qiynoqning har qanday shakllaridan xoli tarzda tibbiy yordam olish;
- Majburiy, intizomiy, o'ch olish yoki qulaylik maqsadidagi cheklov va alohidalashdan xoli bo'lish; ruxsat berilgan cheklov yoki alohidalash malakali xodim tomonidan xavfsiz tatbiq qilinishi;
- Cincinnati Children's shifoxonasida olingan tibbiy yordamga oid barcha xabarlar va yozuvlarga maxfiy ishlov berilishi; asosli muddatlarda kasallik tarixidagi ma'lumotlardan foydalanish;
- Cincinnati Children's shifoxonasi muolajani taqdim etish uchun huquqiy choralar zarur deb hisoblagan taqdirda bundan ogoh va xabardor bo'lish;
- Natijalar taxmin qilingan natijalardan sezilarli farq qilganda har qanday muolaja yoki protseduralarning natijalari haqida aniq tushuntirish olish;
- Alohida ehtiyojlarni qondirishda yordam olish uchun har qanday asosli so'rovga javob kutish;
- Shifoxonadan chiqish rejasini bo'yicha yordam so'rash;
- Hatto shifokorlar sizga maslahat berishmasa ham, qonun tomonidan ruxsat berilishiga qarab, farzandingizni shifoxonadan chiqarish yoki shifoxonani tark etish haqida qaror qabul qiling; sizdan o'zingiz yoki farzandingiz salomatligi uchun mas'uliyatni Cincinnati Children's shifoxonasi zimmasidan soqit qiluvchi shaklni imzolash talab qilinadi;
- Cincinnati Children's shifoxonasi va boshqa muassasalar o'rtasidagi siz va farzandingiz parvarishiga doir har qanday aloqalar haqida bilish;

- Har qanday tadqiqot loyihasida ishtirok etishga rozilik bildirish yoki rad etish;
- Shifoxonadan yoki ambulator xizmatdan chiqqach, tibbiy yordamni davom ettirish ehtiyojining ahamiyati haqida bilish;
- Taqdim etilgan xizmatlar uchun xarajatlar haqida bilish, tibbiy yordam uchun to'lovlarini tekshirish va xarajatlar haqida tushuntirish olish.

## Bemorlar va ota-ona/oila a'zolarining majburiyatlari quyidagilar:

- Sizga nima ma'lum bo'lsa, salomatlik masalalariga aloqador barcha ma'lumotlarni aniq va to'liq taqdim qilish;
- Dastlabki ko'rsatmalarni shakllantirish hamda tibbiy yordam taqdim etuvchi shifoxona xodimlari va amaliyotchilari qonun tomonidan ruxsat berilishiga qarab bu ko'rsatmalarga amal qilishini kutish;
- Boshqa bemorlarga va xodimlarga e'tiborli bo'lish hamda mehmonlaringizni ham ularga nisbatan e'tiborli bo'lishga undash;
- Taqdim qilingan shifoxona va ambulator xizmatlar uchun to'lov qilish, sug'urta talablarini qayta ishlash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etish va/yoki tibbiy yordam uchun hisoblangan to'lovlarni imkon qadar tezroq amalga oshirish;
- Moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelganda shifoxona va ambulator to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy maslahatchi bilan moliyaviy yordam olish ehtimolini muhokama qilish (513-636-0201 raqami orqali moliyaviy maslahatchimizga murojaat qiling);
- Amaliyot shifokori tavsiya qilgan va o'zingiz rozilik bildirgan davolanish rejasiga amal qilish;
- Cincinnati Children's shifoxonasining bemorlar parvarishi va ularning axloqiga doir siyosat va tartiblariga amal qilish;
- Sog'liqni saqlash sohasi ta'minotchilaridan salomatlikka hamda siz va amaliyotchi shifokoringiz tomonidan ishlab chiqilgan davolanish rejasiga doir muammolarni tushunish uchun zarur har qanday savollarni so'rash orqali imkoniyat doirasida ma'lumot qidirish.

## Agar sizda tibbiy yordam jamoangiz tomonidan zudlik bilan bartaraf qilish imkonsiz xavotir yoki shikoyat bo'lsa, quyidagilarga murojaat qilishingiz mumkin:

513-636-4700 raqami yoki [advocates@cchmc.org](mailto:advocates@cchmc.org) email manzili orqali bizning Oilaviy munosabatlar departamentimizga;

1-800-342-0553 raqami yoki [hccomplaints@odh.ohio.gov](mailto:hccomplaints@odh.ohio.gov) email manzili orqali Ogayo (Ohio) shtati Sog'liqni saqlash departamentiga; 1-877-275-6364 raqami orqali Ogayo shtati Mental salomatlik va giyohvandlikka qarshi kurash xizmatlari Mijozlarni himoya qilish bo'yicha mutaxassisiga; Ogayo shtati Imkoniyati cheklanganlarning huquqlari markazi 200 Civic Center Drive, Suite 300, Columbus, OH 43215 614-466-7264 yoki 1-800-282-9181

[www.jointcommission.org](http://www.jointcommission.org) (faqat ingliz tilida mavjud) email manzili orqali Qo'shma Komissiyaga.

Medicare dasturi benefitsiarlari ularning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun so'rov yuborish huquqiga ega. Medicare dasturi bemorlari bu so'rovni Oilaviy munosabatlar departamenti yoki Medicare benefitsiarlariga yordam xizmatining 1-855-408-8557 (OH yoki IN), 1-844-430-9504 (KY) raqamlari yoki [www.keproqio.com](http://www.keproqio.com) (faqat ingliz tilida mavjud) veb-sayti orqali yuborishi mumkin.